

O‘QITISH AMALIYOTIDA FOYDALANILADIGAN ASOSIY TUSHUNCHALARNING MAZMUN VA MOHIYATI

Isakulova Nilufar Janikulovna

O‘zDTU, *Pedagogika va psixologiya kafedrası professori,*
pedagogika fanları doktori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qitish amaliyotida foydalaniladigan asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati berilgan, loyihalashtirish holatlari ko‘rsatilgan, tushunchalarning turlari aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *metodika, ta’lim usuli, ta’lim metodi, ta’lim vositasi, ta’lim texnologiyasi, ta’lim shakli, ta’lim tamoyillari.*

Metodika - pedagogikaning tarkibiy qismi bo‘lib, insonni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to‘g‘risidagi hamda ta’lim- tarbiya berishning mazmuni, shakli va metodlari haqidagi fandir. Metodika qisqacha qilib aytganda, ma’lum bir fanni o‘rganish, o‘qitish metodlari to‘g‘risidagi ta’limot. O‘qitish amaliyotida quyidagi tushunchalar foydalanilib kelmoqda:

- ❖ ta’lim usuli;
- ❖ ta’lim metodi;
- ❖ ta’lim vositasi;
- ❖ ta’lim texnologiyasi;
- ❖ ta’lim shakli;
- ❖ ta’lim tamoyillari.

Metod, o‘qitish metodi, usul, metodika, qoida kategoriyalarining farqi nimada?

Metod so‘zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo‘l va usullar majmui deganidir.

Ta’lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilar o‘quv - bilish faoliyatini tashkil etish yo‘llari tushuniladi.

Ta’lim usuli - ta’lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni.

Metodika - bu xususiy didaktika, ya'ni biror bir fanni o'qitish nazariyasi.

Qoida - tanlab olingan metod bilan bog'liqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi meyoriy ko'rsatmalardir.

Ta'lim metodlari tasnifi tadqiqotlarda aniqlangan (1 -jadvalga qarang):

Ta'lim metodlari tasnifi		1-jadval.
Ta'lim metodlari tasnifi		Manbalari
An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari		E.I.Golant, N.M.Verzilin va boshqalar
O'quvchi laming bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari		I. Y.Lerner va M.N.Skatkin
Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari		M.A.Danilov va B.P.Esipov
Ta'limning binar metodlari		M.I.Maxmutov
Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari		Y.K.Babanskiy
Ta'limning interfaol metodlari		

Ta'lim vositalari bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta'lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin:

faoliyat subektiga ko'ra;

faoliyat obektiga ko'ra;

o'quv axborotiga munosabatiga ko'ra;

o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra (2-jadvalga qarang):

2- jadval.

Ta'lim vositalari turlari	
Ta'lim vositalari turlari	Ta'lim vositalarining vazifalari
Matnli vositalar	Ma'lumot olish va ma'lumotlarni qavta ishlash uchun
Tasvirli vositalar	Umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun
Audiyovizual vositalar	Jarayonlar va ishlash mexanizmlari to'g'risida tasvir va ovoz orqal ihaqiqiy tasavvurlarni vujudga keltirish uchun
Yordamchi vositalar	fasvir va matnni yozish hamda saqlash uchun
Modelli vositalar	O'rganilayotgan ob'ektning modeli orqali u haqda <u>tasavvur hosil qilish uchun</u>

Haqiqiy vositalar	O'rganilayotgan ob'ektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun
-------------------	---

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishfla quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

rejalashtirish pedagogic tahlil natijalariga tayangan holda o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish yoki muhim hukm chiqarish;

loyihalashtirish muayyan tuzilishga ega, ya'ni loyihani ishlab chiqish bosqichlarining ketma-ketligi va tarkibi, jarayonlar, jalb qilingan vositalar to'plami va jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'siri [2, 3].

Ta'lim jarayonida texnologiyalashtirish bilan bog'liq quyidagi tushunchalar ham mavjud bo'lib, maqsadiga qarab loyihalashtiriladi:

ta'lim texnologiyalari;
tarbiyada texnologiyalar;
innovatsion texnologiyalar;
axborot-kommunikatsion texnologiyalar;
pedagogik texnologiyalar,

Ta'limjarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1- bosqich: loyihani yaratish;
- 2- bosqich: talabalar faoliyatini tashxislash;
- 3- bosqich: pedagogik jarayonni tashkil etish;
- 4- bosqich: pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash;
- 5- bosqich: talabalar faoliyatini nazorat qilish.

Ta'lim olish shakllari. To/Wm olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy); dual ta'lim;
oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
inklyuziv ta'lim;
eksternat tartibidagi ta'lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlashfl].

O'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u didaktik prinsip (qonuniyat) larni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. Ta'lim qonuniyatlari bu - o'qitish jarayoniga qoyiladigan talablar yig'indisidir. Ta'lim prinsip (tamoyil) lari deb, tadimning barcha bosqichlari va hamma predmetlarini o'qitish uchun asos bo'ladigan qonuniyatlar, qoidalarga aytamiz. Ta'lim qonuniyatlari ta'lim oluvchi va o'qituvchi orasidagi eng muhim ichki ahamiyatni aks ettiradi.

Ma'lumki, qonuniyat-bu barqaror, zaruriy u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar o'quv jarayonining harakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari: usullari va vositalari qonuniy ravishda aniqlab beradi. Agar o'qitish jamiyat talablarini e'tiborga olmasa, u holda uni, albatta, qayta ko'rish, takomillashtirish kerak. Demak, ta'lim berish, tarbiyalash va o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.

Ifodalangan qonuniy didaktik aloqalarni va o'qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o'zaro bog'lanishda qo'llash ko'nikma va malakalarni chuqur, puxta, ongli va ta'sirli o'zlashtirilishini ta'minlaydi. O'qitishni aynan shunday natijaga qaratish uning ongliklik, puxtalik, ta'sirchanlik qoidalarini xarakterlaydi.

Ta'limning mazmuni hayot, hozirgi zamon fani bilan bog'langan bo'lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muammolari, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlash kabilar asosida intensivlash o'z aksini topishi kerak.

Har bir o'qituvchi shuni anglab yetishi muhimki, o'quv jarayonini samarali ko'rish - bu, ishda o'zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni hal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o'zaro aloqada foydalanish demakdir.

O'qitishning muqobil tomonlarini tanlash uchun butun qonuniyatlar birligini va didaktik qoidalarini e'tiborga olish zarur. O'qitish qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki. buni o'qitish

qoidalari deb ataladi. O'qitish qoidalarini bilish o'qitishning zarur usullarini yanada ishonchiroq tanlashga imkon beradi.

Ta'lim qoidalari - o'qituvchining faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l - yuriqlarini o'z ichiga oladi. SHu bilan bir vaqtda ta'lim qoidalari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi tomonidan o'z oldiga qoyilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi.

Ta'lim o'qituvchining faoliyati va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonuni va yo'l-yo'riqlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tamoyillari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy qonunlaridir. Qonuniyat bu barqarorlik, zarariyat, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa.

Xulosa qilib aytganda, o'qitish amaliyotida yuqorida qayd etilgan tushunchalarning mazmun-mohiyatiga asosan foydalanish, qo'llash hamda loyihalashtirish amalga oshirilsa, o'qitishni to'g'ri tashkil etish imkoniga ega bo'lish kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистан Республикасининг Таълим тўғрисида Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь ЎРҚ-637 сон Қонуни.
2. Инновацион таълим технологиям ва педагогик компетентлик. Уқув-услугий мажмуа. - Тошкент, 2017. - 230 б.
3. Олий таълим муассасаларидалар ўқув-тарбия жараёнининг самарадорлигини оширишга йўналтирилган инновацион ўқитиш методлари ва технологиялари. - Тошкент, 2014. - 25 б.